
JURNALISTLAR ISHLAB CHIQRISH KORXONALARI FAOLIYATI BILAN TANISHDI

Toshloq tumani hokimligi tomonidan tumanda investisiya muhitini yaratish, ishlab chiqarish korxonalar hamda ularda yangi ish o'rinlarini yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ommaviy axborot vositalari vakillari hamda blogerlar uchun press-tur tashkil etildi.

Press-tur ishtirokchilari "Yoshlar" kichik sanoat zonasida joylashgan "Gold Ston Syti " qurilish mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonasida bo'ldi.

Tadbirkor Abdurashid O'rmonov tomonidan yo'lga qo'yilgan korxonada 12 turdagi qurilish mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Rangli bo'yoqlar, kley, gapsakardon, travertin mahsulotlari shular jumlasidan.

Mahsulotlar asosan ichki bozorlarga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston Respublikalari bilan eksport qilish uchun shartnomalar imzolagan.

Umumiy qiymati 1 milliard so'mga teng loyiha doirasida joriy yilda faoliyatini boshlagan ushbu korxonada 10 nafarga yaqin ish o'rinlari tashkil etilgan.

Press-tur davomida jurnalist va blogerlar ishlab chiqarish jarayonlari bilan yaqindan tanishdilar.

2023-08-17 17:32:24